Yangiyeva Sabrina Ixtiyorovna, Daniyarova Feruza Bahriddinovna	
Особенности кредитования сельскохозяйственных организаций и этапы его развития.....	1032
Ж.Я.Нуриллаев	
Xorijiy tajriba asosida O'zbekiston yashil iqtisodiyotini takomillashtirish yo'llari.....	1039
Xikmatova Husnora Fatxulla qizi	
Yashil iqtisodiyot sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda davlatning roli	1045
Umarov Muzaffar Yusupbayevich, Otamurodov Rasulbek Batirovich, Xaitbayev Jasurbek Otaxanovich, Atadjanov Kadambay Sapayevich	
Mintaqada raqamli transformatsiya rivojlanishida moliyaviy texnologiyalarning ahamiyati.....	1052
Rustamov Jasurbek Ravshanbek o'g'li	
Tijorat banklaridan olingan kreditni qaytarishda foiz stavkalari ta'sirining tahlili.....	1058
Xanmuratov Roushenbek Xalmuxammetovich, Vaxabov.A.V	
Tabiiy va sun'iy tolalarning ekologik ta'siri va yashil ishlab chiqarish texnologiyalariga o'tish bosqichlari.....	1066
Raximov Furqat Jalalovich	
Maishiy kimyo tovarlari B2B taqsimotida chakana savdo tarmoqlari bilan marketing asosidagi strategik hamkorlik	1071
Ro'ziyeva Farzona Komiljon qizi	
Мировой финансовый кризис и его влияния на состояние экономики Узбекистана	1076
Раупова Мхлисахон Ибрахимжон кизи	
Uzoq muddatli aktivlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish.....	1087
Hakimov Faxritdin Abdusattorovich	
O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari	1093
Djo'rayeva Lola Abdugabbarovna	



Yo'l qurilish tashkilotlarida yo'l qurilish ko'lamini oshirib, samarali resurslar taqsimotini ishlab chiqish.....	1099
Raximov Dilshodjon Turdiali o'g'li	
Ilg'or xorij tajribalaridan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari	1104
Karimova Komila Daniyarovna	
Ichki audit samaradorligini tahlil qilish metodologiyasi.....	1111
I.G'.Isroilov	
Выведение практического сотрудничества на качественно новый уровень государств центрально-азиатского региона в укреплении концепции «зеленой экономики» в эпоху глобализации.....	1117
Парпиева Наргиза Тахировна	
Kimyo sanoati korxonalarida lean production konsepsiyasidan foydalanish istiqbollari	1122
Gulbayeva Feruza Islomovna	
Qimmatli qog'ozlar bozorida auditorlik xizmatlarining ahamiyati.....	1127
Maxmudov Saidjamol Kadirjanovich	
Tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlash yo'llari	1131
Allaberganov Sirojali Saxatovich	
Теоретические основы формирования понятия «финансовая стабильность» Часть II	1143
Алиева Сусанна Сейрановна	
O'zbekiston moliya tizimini raqamlashtirishning rivojlanish tendensiyalari.....	1148
Tashmatova Rano Gaibovna, Qodirov Nurhayot Normuhammad o'g'li	
Theoretical basis of the use of modern information technologies in accounting	1154
Annayev Abdurasul Abdurashidovich, Tojiboyev Jasurbek Shavkat o'g'li, Rustamov Suxrob Asror o'g'li	
Moliyaviy bozorlar chayqalmoqda: investorlar uchun yangi signalmi?	1158
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li, Yaxshiboyev Jahongir Abdualimovich	
Yashil moliyalashtirish va esg samaradorligining iqtisodiyot barqarorligidagi o'rni.....	1166
Yusupov Sherzodbek Baxtiyor o'g'li, Atadjanov Kadambay Sapayevich, Madraimov Xabibulla Madaminovich	
Tijorat banklarida muammoli kreditlarni kamaytirish bo'yicha tizimlarni takomillashtirish yo'llari	1170
Bekmurodova Mahbuba Mahmudovna	
Maqola: Globalizatsiyada inson resurslarini boshqarishda raqamli transformatsiyaning rejasini tuzish	1177
Salimjonova Gulhayo Asliddin qizi, Ovxonov Iqboljon Abdunabiyevich, Nabiye Sherzodbek Nurmuhammad o'g'li	
Turizm sanoatida Internet-marketing vositalari va ulardan samarali foydalanish	1182
Babaev Jo'rabek	
Ishlab chiqarishni boshqarishda mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning ahamiyati	1190
Asqarova Lobarxon Usmanjanovna	
O'zbekistonda ichki turizm faoliyatini rivojlantirishda transport infratuzilmasini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlarini	1194
Turopov Maqsudjon	
Kichik biznes faoliyatini rivojlantirishda soliq siyosatini takomillashtirishning ahamiyati	1199
Abdurahmonov Abdumalik Abdug'ani o'g'li	
Madaniy-tomosha xizmatlarining tahlili va uni rivojlantirish yo'llari	1204
Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
Цифровизация экономики и генезис стран мирового хозяйства	1211
Камилова Наргиза Абдукажоровна	
“Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi” faoliyati	1216
Xushmurodov Baxtiyor Turg'un o'g'li	
Soliq stavkalarini tabaqalashtirish asosida soliq to'lovchilar iqtisodiy faoliyatini tartibga solish mexanizmlari.....	1220
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish va barqaror rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar	1223
Xamdamov Shoh-Jahon Rahmat o'g'li	
Mintaqaning eksport salohiyati tahlili asosida istiqbolli y'nalishlarni aniqlash (Xorazm viloyati misolida).....	1229
Ibadullayev Ergash Bakturdiyevich	



Uy-joy kommunal xo'jaligini mintaqada innovatsion rivojlantirishni boshqaruvi	1235
Adilova Yulduz Shavkatovna	
Bank tizimi likvidligini ta'minlash vositalari va usullarini takomillashtirish	1239
Poyonov Bobir Bekmurod o'g'li	
Milliy brendlarni shakllantirish orqali tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish	1245
Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi	
Charm mahsulotlaridan tayyorlangan bolalar transformatsion sumka ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligi	1250
Ismailov Nurulla Tuychibayevich	
O'zbekistonda qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyati: iqtisodiy tahlil va islohotlar zarurati	1256
Raximov Ilyos Ikramovich	
Yoqilg'i-energetika kompleksida innovatsion salohiyatni oshirish strategiyasi	1262
Nabiyeva Saidaxon Abduvaxabovna	
Banklarda moliyaviy xavfsizlik kategoriyasining evolyusiyasi	1268
Qobilov Muxammad Ayubxon Yusufjon o'g'li	
Развитие системы бухгалтерского учёта и отчётности на современном этапе	1273
Мамажонов Акрамжон Тургунович, Юсупова Малика Ботиралиевна	
Практика банковского кредитования предпринимательских субъектов сферы услуг в германии	1279
Мукарова Сарвиноз Маликовна, Каримова Азиза Махомадризовна	
Статистический анализ теневой экономики в узбекистане	1283
Кошанов Абдимурат Азат ули, Абдиразакова Асемай Жандулла кизи	
The importance of using digital technologies in business	1288
Makhmudova Munisakhon Abbos qizi	
0,4 kv kuchlanishdan ta'minlanuvchi suv nasoslarini tarmoq faza kuchlanishi yo'qolishidan himoyalash	1292
Xalikova Xurshida Abdullayevna, Nurova Malika Abduzairovna, Mustayev Ruslan Aktamovich	
Tijorat banklarida korporativ boshqaruv tizimining samaradorligini oshirish	1297
Dexkonova Saydaxon Nurmuxammatovna	
Ijtimoiy-iqtisodiyot va markaziy osiyo mamlakatlari ijtimoiy sohada	1302
Usmanxo'jayeva Surayyo Muxtarovna	
Aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotini tashkil etish va o'tkazish bosqichlari	1307
Raimov Farrux Avazjon o'g'li	
Approaches to effective management of tax liabilities through tax auditing	1311
Abdullayev Abror Bozarboevich	
Tijorat banklarida aktivlarni sekyuritizatsiyalash tizimini takomillashtirish	1316
Axmedov Akbarali Sultonmurodovich	
Tashqi va ichki omillar ta'sirini hisobga olgan holda korxona moliyaviy holati barqarorligining tahlili	1325
Eshkuvatov Azizjon Baxtiyorovich	
Tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli	1330
Masharipov Rasulbek Jo'rabekovich	
Sun'iy intellekt asosida bank tizimini modernizasiya qilish va samaradorligini oshirish	1333
Boykulov Baxriddin Karshievich	
Aksiyadorlik jamiyatlarini moliyalashtirish manbalaridan samarali foydalanish	1338
Arifjanova Yayraxon Usmonxo'jayevna	

AKSIYADORLIK JAMIYATLARINI MOLIYALASHTIRISH MANBALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH

Arifjanova Yayraxon Usmonxo'jayevna

TDIU tayanch doktaranti

ariya7@mail.ru

<https://orcid.org/0009-0009-1860-202X>

Annotatsiya: Mazkur maqolada aksiyadorlik jamiyatlarini moliyalashtirishda foydalaniladigan asosiy manbalar tahlil qilinadi. Tadqiqotda kapital bozori vositalaridan, xususan, qimmatli qog'ozlar emissiyasi orqali moliyaviy resurslarni jalb qilish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Aksiyadorlik jamiyatlarining fond bozorida faolligini oshirish, investorlarni jalb qilish va samarali qarz instrumentlarini tanlashdagi yondashuvlar muhokama etilgan. Ushbu yondashuvlar asosida moliyalashtirish strategiyasini shakllantirish tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: aksiyadorlik jamiyati, kapital bozori, qimmatli qog'ozlar, aksiya, obligatsiya, emitent, investor, qarz instrumentlari.

Abstract: This article analyzes the main sources of financing for joint-stock companies. The study explores the potential of capital market instruments, particularly the issuance of securities, to attract financial resources. The paper discusses approaches to enhancing the activity of joint-stock companies in the stock market, attracting investors, and selecting effective debt instruments. Recommendations are provided for the development of optimal financing strategies.

Key words: joint-stock company, capital market, securities, stock, bond, issuer, investor, debt instruments.

Аннотация: В статье анализируются основные источники финансирования акционерных обществ. Рассмотрены возможности привлечения финансовых ресурсов за счёт инструментов рынка капитала, в частности, посредством эмиссии ценных бумаг. Обсуждаются подходы к повышению активности акционерных обществ на фондовом рынке, привлечению инвесторов и выбору эффективных долговых инструментов. Представлены рекомендации по формированию стратегии финансирования.

Ключевые слова: акционерное общество, рынок капитала, ценные бумаги, акция, облигация, эмитент, инвестор, долговые инструменты.

KIRISH

Bugungi kunda korxonalar uchun eng muhim masalalardan biri – bu moliyalashtirish manbalarini to'g'ri tanlash hisoblanadi. Har bir aksiyadorlik jamiyati o'z faoliyati davomida raqobatbardoshligi va moliyaviy holatidan kelib chiqqan holda optimal va samarali moliyalashtirish manbasini tanlashga intiladi. Bu esa, o'z navbatida, korxonaning kelgusidagi moliyaviy barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan muhim omillardan biridir. Moliyalashtirish manbasini tanlashda aksiyadorlik jamiyati ushbu manbalarining afzallik va kamchiliklarini o'rganib chiqadi hamda o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda eng maqbul variantni tanlaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Professor Myers va Majlufning fikricha, korxonalar moliyalashtirishda birinchi navbatda ichki mablag'lardan foydalanishni afzal ko'radi. Ichki manbalar yetarli bo'lmaganda esa qarz kapitali jalb qilinadi. Tashqi moliyalashtirish manbasi sifatida qo'shimcha aksiyalar emissiyasi esa so'nggi imkoniyat sifatida ko'riladi [1].

Modigliani va Millerlarning fikriga ko'ra, qarz kapitali soliqdan imtiyozlar mavjudligi sababli kompaniya qiymatini oshiradi [2].

Kazakova E.G. o'z maqolasida aksiyadorlik jamiyatlari moliyalashtirish manbalarini kompaniya hajmi, investitsiya miqdori va bozor sharoitlarini hisobga olgan holda tanlashini ta'kidlaydi [3].



Tursunova N.R. o'z tadqiqotida korporativ moliyani boshqarishda moliyaviy ta'minotni samarali tashkil etish yo'llarini tahlil qilgan. Uning fikricha, korporativ tuzilmalarda faqat o'z mablag'lari va bank kreditlariga tayanish natijasida faoliyatni kengaytirish va yangi loyihalarni moliyalashtirishda muammolar yuzaga kelmoqda. Shu bois, qimmatli qog'ozlar bozorining turli instrumentlaridan foydalanish va xalqaro moliya bozorida kapital jalb qilishga jiddiy e'tibor qaratish zarur. Bu orqali mahalliy korporativ tuzilmalar nisbatan arzon kapitalni xalqaro moliya bozori orqali jalb qilish imkoniyatiga ega bo'ladi [4].

Otaxonova Sh.X. o'z tadqiqotida korporativ qimmatli qog'ozlar muomalasining kengayishi kreditlardan tashqari qarz instrumentlari orqali kapital jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirishini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, korporativ qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanishi kreditlash, ayniqsa imtiyozli kreditlash natijasida yuzaga keladigan inflyatsiyani kamaytiradi. Shuningdek, korporativ qimmatli qog'ozlar bo'yicha qat'iy daromadning oldindan belgilanishi aholining depozitlardan tashqari boshqa moliyaviy vositalarga ham investitsiya kiritishiga turtki beradi [5].

Hamdamov O.N. o'z maqolasida xalqaro kapital bozorida moliyaviy resurslar jalb qilish amaliyotini tahlil qilarkan, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda ichki manbalar hisobiga moliyaviy resurslarni shakllantirish va ulardan samarali foydalanish muhimligini qayd etadi. Shu bilan birga, moliyaviy resurslarga bo'lgan talabning ortib borishi xalqaro kapital bozorida moliyaviy resurslarni jalb qilish zaruratini yuzaga keltiradi. U, xususan, xalqaro kapital bozorida obligatsiyalar orqali jalb qilingan mablag'lar tahlilini ham amalga oshirgan [6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda statistik tahlil, ilmiy mushohada, tahlil va sintez, shuningdek, taqqoslash kabi ilmiy-uslubiy usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Korxonani moliyalashtirish o'z mablag'lari va qarz mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. O'z mablag'lari ichki va tashqi manbalar orqali shakllantiriladi. Ichki moliyalashtirish manbalariga sof foyda, amortizatsiya ajratmalari, shakllantirilgan maxsus fondlar hamda taqsimlanmagan foyda kiradi. Tashqi moliyalashtirish esa aksiyalar yoki obligatsiyalar emissiyasi, shuningdek kredit olish orqali amalga oshiriladi. Aksiyadorlik jamiyatlarining ustav kapitali aksiyalarning nominal qiymatini oshirish yoki qo'shimcha aksiyalar chiqarish hisobiga shakllantiriladi.

O'z mablag'laridan, ayniqsa ichki manbalardan foydalanish korxona uchun eng maqbul tanlov bo'lishi mumkin. Chunki bunday hollarda moliyaviy mablag'dan foydalanganlik uchun to'lov amalga oshirilmaydi va qarz yuki yuzaga kelmaydi. Biroq aksiyadorlik jamiyatlarini moliyalashtirishda har doim ham o'z mablag'lari yetarli bo'lmaydi. Shu sababli, korxonalar tashqi manbalar, xususan qarz kapitalidan foydalanishga intiladi.

Qarz mablag'lari hisobiga moliyalashtirish manbalariga bankdan olingan kreditlar, muomalaga chiqarilgan obligatsiyalar hamda tuzilgan lizing shartnomalari kiradi. Qarz kapitali korxonaning rivojlanishi va kengayishi uchun zaruriy resurs bo'lib, u muddatiga ko'ra uzoq va qisqa muddatli qarz majburiyatlariga bo'linadi.

Qarz mablag'lari orqali moliyalashtirish to'lovlilik, qaytaruvchanlik va muddatlilik tamoyillariga asoslanadi. Bu holatda, kapital bahosi hamda qarz mablag'laridan foydalanish maqsadlariga qarab, aksiyadorlik jamiyatlari bank krediti yoki obligatsiya emissiyasini tanlashlari mumkin. Bundan tashqari, korxonalar milliy iqtisodiyot, ya'ni ichki moliya bozori orqali yoki xalqaro kapital bozori orqali xorijiy kapital jalb qilish imkoniyatiga ham ega.


Xalqaro bank kredit liniyalarida ishtirok etish va korporativ yevroobligatsiyalarni emissiya qilish orqali korxonalar nisbatan past foiz stavkalarida, uzoq muddatli qarz mablag'larini jalb qilish imkoniyatini qo'lga kiritadilar.

Aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan moliyalashtirish manbalarini tahlil qilish korxonaning moliyaviy imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotida korxonalar uchun moliyalashtirishning asosiy shakli bank kreditlari hisoblanadi. Kredit jalb qilishda korxonalar ishonchli va asoslangan biznes-rejaga ega bo'lishlari zarur. Obligatsiya emissiyasi esa oldindan tayyorgarlik bosqichlarini talab qiladi.

Aksiyadorlik jamiyati kredit olayotganida yagona kreditor — bank bilan moliyaviy munosabatga kirishadi. Biroq obligatsiyalarni muomalaga chiqarish orqali bir nechta investorlar bilan muloqot qilish talab etiladi. Bankdan kredit olish uchun biznes-reja orqali ishonchni qozonish kerak bo'lsa, qimmatli qog'ozlar bozorida esa emitent sifatida moliyaviy hisobotlarning oshkoraligi orqali investorlar e'tiborini jalb etish muhim hisoblanadi.

Bank kreditlari — bu yagona kreditor tomonidan taqdim etilgan moliyaviy manba bo'lsa, obligatsiyalar orqali korxonalar turli investorlardan mablag' jalb qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Aksiyadorlik jamiyatlarining obligatsiyalar bozorida faol ishtiroki ularning qimmatli qog'ozlar bozorida nufuzini va o'rnini mustahkamlaydi.

Bank krediti jalb qilish jarayoni, obligatsiyalar emissiyasiga nisbatan kamroq vaqt talab etadi. Biroq obligatsiyalar orqali, ko'p hollarda, pastroq foiz stavkasida kapital jalb qilish imkoniyati mavjud. Shu bois, qarz kapitalidan foydalanishda korxonalar kapital bahosini chuqur tahlil qilgan holda qaror qabul qilishlari lozim bo'ladi.



1-rasm. Aksiyadorlik jamiyatlarini moliyalashtirish manbalari.

Kapital bahosi, qarz kapitalidan foydalanish evaziga to'lanadigan xarajatlardan kelib chiqib hisoblanadi. Ya'ni, kompaniyalar kapital bahosini aniqlash orqali moliyaviy mablag'lardan foydalanish xarajatlari eng past bo'lgan manbalarni tanlashga intiladi.

Kapital bahosi quyidagi holatlarda muhim ahamiyat kasb etadi:

- investorlar tomonidan qo'yilgan mablag' bo'yicha talab qilinadigan daromadni aks ettiradi;
- investitsiyalarning bir nechta variantlari orasidan to'g'ri tanlov qilish imkonini beradi;
- moliyalashtirish manbalari tarkibini boshqarish asosini tashkil etadi;
- korxona faoliyati samaradorligini va mulkdorlar uchun qo'shimcha qiymat yaratishni ta'minlovchi iqtisodiy vosita sifatida xizmat qiladi [7].

Aksiyadorlik jamiyati qarz kapitali jalb qilish orqali qo'shimcha mablag'larga ega bo'ladi va bu, o'z navbatida, korxonaning rivojlanish hamda kengayish imkoniyatlarini oshiradi. Ushbu jarayonda moliyaviy barqarorlikni saqlash uchun kapital tarkibini samarali boshqarish muhim ahamiyatga ega.

Bank orqali kredit jalb qilish qarz oluvchining ehtiyojlari asosida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, bank tomonidan moliyalashtirilayotgan loyihalar professional ekspertiza orqali baholanadi. Obligatsiya emissiyasi esa korxonaga katta miqdordagi moliyaviy resurslarni jalb qilish imkonini yaratadi. Biroq bu jarayon investorlarning ishonchini qozonishni, shuningdek, korxonaning bozordagi barqaror mavqeini talab qiladi.

Investorlarda obligatsiyalar, aksiyalarga nisbatan pastroq riskli, biroq daromadi kafolatlangan qimmatli qog'oz sifatida qiziqish uyg'otadi. Obligatsiyalarning so'ndirilish muddatining mavjudligi moliyaviy mablag'lar harakatini oldindan rejalashtirish va nazorat qilish imkonini beradi.

Qarz mablag'larini jalb qilish korxonaga yangi loyihalarni ishga tushirish hamda o'z mablag'lari rentabelligini oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, bu qarz yuki ortishiga va to'lovga layoqatsizlik xavfini kuchaytirishga olib kelishi mumkin. Shu sababli, moliyaviy menejerlar o'z va qarz kapitali o'rtasidagi nisbatni doimiy ravishda nazorat qilib borishlari zarur.

Korxona moliyalashtirish manbalarini to'g'ri tanlash uchun, avvalo, o'zining moliyaviy holatini, o'sish rejaralarini va umumiy strategik maqsadlarini baholashi lozim. Bugungi kunda an'anaviy moliyalashtirish



manbalari bilan bir qatorda, zamonaviy va muqobil moliyalashtirish usullaridan ham keng foydalanish mumkin. Masalan, kraudfunding, P2P kreditlar, xayriya mablag'lari va davlat grantlari — yangi imkoniyatlarni ochib beruvchi moliyaviy manbalar sirasiga kiradi. Bunday manbalarni tahlil qilish orqali aksiyadorlik jamiyati o'z strategik rejalariga mos va uzoq muddatli rivojlanishga yo'naltirilgan moliyaviy resurslarni aniqlashi mumkin.

Shuningdek, aksiyadorlik jamiyati qo'shimcha aksiyalar chiqarish orqali mablag' jalb qilish imkoniyatiga ega. Aksiyalar, odatda, obligatsiyalarga qaraganda yuqoriroq daromad va risk darajasiga ega bo'lgan qimmatli qog'ozlar hisoblanadi. Dividendlar korxona foydasiga bog'liq bo'lganligi sababli, aksiyalar bo'yicha daromad kafolatlanmagan. Kompaniya aksiyalar emissiyasi orqali qo'shimcha o'z kapitaliga ega bo'ladi, biroq bu, shu bilan birga, qaror qabul qilish jarayoniga ta'sir ko'rsatadigan yangi aksiyadorlar sonining ortishiga olib keladi.

Obligatsiya emissiyasi orqali kapital jalb qilish korxona uchun nisbatan arzonroq kapital manbai bo'lib xizmat qiladi. Biroq, bunday imkoniyatlardan foydalanish uchun korxona bozorda ishonchli va barqaror mavqega ega bo'lishi zarur. Obligatsiyalar kupon stavkalari orqali kafolatlangan daromadlilikka va belgilangan so'ndirish muddatiga ega bo'lganligi sababli investorlar uchun jozibador qimmatli qog'ozlar sifatida e'tirof etiladi(1-jadval).

1-jadval. O'z va qarz kapitali jalb qilish imkoniyatlari.

Xususiy kapital	Qarz kapitali
<i>Aksiya emissiyasi</i>	<i>Obligatsiyasi emissiyasi</i>
Jalb qilingan kapitalni qaytarish majburiyati mavjud emas.	So'ndirilish muddati aniq va kapital qaytarilishi kerak.
Yuqori kredit reytinggi talab qilinmaydi.	Ijobiy kredit tarixiga va reytingiga ega bo'lishi kerak.
Yangi investorlar bilan tajriba almashish imkoniyatini taqdim etadi.	Qarz kapitali bo'lganligi uchun foydani bo'lishish majburiyati mavjud emas.
Aksiyadorlar sonining ortishi egalik huquqini kamaytiradi.	Egalik huquqiga ta'sir ko'rsatmaydi.
Yangi investorlar aksiyadorlik jamiyatining qarorlariga ta'sir ko'rsatishadi.	Muvaffaqiyotli obligatsiyalarni joylashtirish kompaniya mavqeini mustahkamlaydi. Kredit reytingini oshirishga yordam beradi.
Investorlar foydadan dividend ko'rinishida ulush olishadi. Bu esa kapital bahosini oshiradi.	Kupon to'lovlari kredit foizlaridan past bo'lishi mumkin. Bu kapital bahosini kamaytiradi.
Soliq imtiyozlari mavjud emas.	Soliq imtiyozlari mavjud.
Kapital uchun to'lov korxonaning foydasiga bog'liq.	Aniq sanalarda foiz to'lovlari mavjud. Bu investorlar uchun daromadlilikni kafolatlaydi. Korxona uchun esa majburiyatni bajarmaslik bankrotlik xavfini yuzaga keltirishi mumkin.
	Garov talab qilinishi mumkin.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, kichik korxonalar moliyalashtirishda ichki manbalardan foydalanishni afzal ko'radilar. O'rta va yirik korxonalar esa tashqi moliyalashtirish imkoniyatlaridan, xususan, nisbatan past foizli resurslar hisobiga mablag' jalb qilish imkoniyatiga ega. Biroq, moliyalashtirish usullarining tanlanishi ko'p jihatdan korxonaning strategik maqsadlari va moliyaviy holatiga bog'liqdir.

Quyida yirik kompaniyalarning moliyalashtirish strategiyalarini ko'rib chiqamiz(2-jadval):

2-jadval. Yirik kompaniyalarning moliyalashtirish strategiyalari.

Kompaniya nomi	Moliyalashtirish strategiyasi	2024-yil yakunlari bo'yicha jalb qilgan mablag'lari
Apple	Arzon qarz kapital manbayi sifatida obligatsiya emissiyasidan foydalanish	4.25 milliard dollar obligatsiya emissiya qilgan 2.85-3.45 foiz stavkalar asosida
Amazon	Rivojlanishga sarmoya sifatida aksiya chiqarish	3.75 milliard dollar obligatsiya emissiya qilgan 2.8-3.8-4.7 foiz stavkada
Tesla	Sarmoya va o'sishni birgalikda qo'llab quvvatlash uchun gibril moliyalashtirishdan foydalanish ya'ni konvertatsiya qilinadigan obligatsiya	2.863 milliard obligatsiya emissiyasi amalga oshirilgan.
Microcoft	Past foizli va uzoq muddatli moliyalashtirish manbai sifatida obligatsiya emissiya qilish	3.3 milliard dollar obligatsiya emissiya qilgan. 1.35-4.50 foiz oraliqda

Alibaba	Konvertatsiya qilinadigan obligatsiyalar emissiyasi	5 milliard dollar obligatsiya emissiya qilgan.
Samsung	Foydani reinvestitsiya qilish bilan birga xalqaro obligatsiyalardan foydalanish	1.045 milliard dollar obligatsiya emissiya qilgan.

KMamlakatning fond bozorining rivojlanganligi qimmatli qog'ozlar emissiyasi orqali nisbatan arzon kapital jalb qilish imkonini yaratadi. Aksiyadorlik jamiyatining fond bozoridagi faolligi esa investorlarda qiziqish va ishonch uyg'otadi. Bu holat, o'z navbatida, past foizli obligatsiyalar chiqarish orqali qo'shimcha mablag' jalb qilish imkoniyatini kengaytiradi.

Bundan tashqari, qimmatli qog'ozlar orqali nafaqat milliy iqtisodiyotdan, balki xalqaro obligatsiyalarni muomalaga chiqarish orqali xalqaro kapital bozoridan ham moliyaviy resurslar jalb qilish mumkin. Investorlar esa, investitsiya portfellarini diversifikatsiya qilish maqsadida, obligatsiyalarga sarmoya kiritishni afzal ko'radilar.

Bugungi kunda an'anaviy moliyalashtirish usullari bilan bir qatorda zamonaviy moliyalashtirish vositalari ham kengayib bormoqda. Xususan, kraudfanding platformalari orqali mablag' yig'ish, venchur kapitalini jalb qilish hamda kriptoaktivlardan foydalanish kabi usullar tobora ommalashib bormoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini turli moliyalashtirish manbalari orqali qo'llab-quvvatlash siyosatini ishlab chiqishda, avvalo korxonaning mavjud imkoniyatlari chuqur o'rganilishi zarur. Kompaniyani moliyalashtirish manbalarini tanlashda bir nechta muhim omillar, jumladan, kapital tarkibi, risk darajasi, xarajatlar miqdori va investorlarning ishonchi inobatga olinadi.

Aksiyadorlik jamiyatlari kapital tarkibi bo'yicha qarorlar qabul qilayotganda mamlakat fond bozorining rivojlanganligi, investorlar faolligi hamda korxonaning bozor ishtirokchisi sifatidagi mavqeini ham hisobga olishi kerak. Shuningdek, moliyalashtirish strategiyasini ishlab chiqishda o'z va qarz mablag'lari tarkibini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

O'z mablag'larining ichki manbalaridan foydalanish har doim ham kompaniya uchun yetarli bo'lavermaydi. Shu sababli, tashqi manbalarni jalb qilish zarurati tug'iladi. Bunda xususiy kapital yoki qarz kapitalidan foydalanish masalasi bevosita korxonaning hajmi, faoliyat sohasi va bozordagi pozitsiyasiga bog'liq bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, aksiyadorlik jamiyatlari qimmatli qog'ozlar, xususan obligatsiyalar emissiyasi orqali kapital bahosi nisbatan past bo'lgan moliyaviy resurslarni jalb etish imkoniyatiga ega. Bu imkoniyat esa mamlakatdagi fond bozorining rivojlanish darajasi hamda korxonaning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faolligiga chambarchas bog'liqdir.

Qimmatli qog'ozlar emissiyasi orqali korxona nafaqat milliy iqtisodiyotdan, balki xalqaro kapital bozoridan ham bevosita mablag' jalb qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Muvaffaqiyatli obligatsiyalar joylashtirilishi esa korxonaning fond bozoridagi mavqeini mustahkamlashda muhim omil sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Myers, S.C., Majluf, N.S. Corporate financing and investment decisions when firms have information that investors do not have. *Journal of Financial Economics*, Volume 13, Issue 2, June 1984, Pages 187–221.
2. Franco Modigliani and Merton H. Miller. Corporate Income Taxes and the Cost of Capital: A Correction. *The American Economic Review*, Vol. 53, No. 3 (Jun., 1963), pp. 433–443.
3. Казакова Е. Источники финансирования деятельности компании в современных условиях / Казакова Е.Г. // Актуальные проблемы общества, экономики и права в контексте глобальных вызовов. – 2021. – С. 99–102.
4. Tursunova N.R. Korporativ moliyani boshqarishda moliyaviy ta'minotni samarali tashkil etish yo'llari. Avtoreferat. Toshkent – 2019.
5. Otaxonova Sh.X. Kapital bozorida korporativ qimmatli qog'ozlar muomilasini takomillashtirish. Avtoreferat. Toshkent – 2025.
6. Hamdamov O.N. Xalqaro kapital bozoridan moliyaviy resurslarni jalb qilish amaliyotining tahlili. *Iqtisod va moliya / Экономика и финансы*, 2020, 4(136).
7. Elmirzayev S.E. Korporativ moliya: Darslik. – T.: "Iqtisod-Moliya", 2019 yil, 369 bet.
8. Касимова М.И. Рынок капиталов: сущность, содержание и его место в системе рыночных отношений // Фундаментальные исследования. – 2016. – С. 152–156.
9. Frederics S. Mishkin, Kent Matthews, Massimo Giuliadori. *Financial Markets and Institutions*. USA: Prentice Hall, 2012.
10. <https://www.imv.uz/oz/news/category/yangiliklar/post-1621> – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy sayti.
11. <https://www.icmagroup.org/sustainable-finance/the-principles-guidelines-and-handbooks/green-bond-principles-gbp/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>